Ikkinchi yo'nalish biotexnologiya obyektlarining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash va tasniflashga bag'ishlandi. Bu yerda tabiiyligi va sun'iylik dialektikasi, takrorlanish qobiliyati, yuqori xavf darajasi va etik ahamiyat kabi xususiyatlar batafsil o'rganildi. Har bir xususiyat alohida tahlil qilindi va ularning o'zaro bog'lanishi ko'rsatildi. Xususan, bu xususiyatlarning fuqarolik-huquqiy munosabatlarga ta'siri va huquqiy tartibga solish masalalarida qanday aks etishi tadqiq etildi.

Uchinchi yo'nalishda xalqaro huquqiy amaliyotni tahlil qilish jarayoni amalga oshirildi. Bu jarayonda AQSh, Yevropa Ittifoqi va Xitoy kabi yirik ilg'or yurisdiksiyalardagi huquqiy yondashuvlar qiyosiy tahlil qilindi. Har bir davlatning o'ziga xos yondashuvlari va ularning sabablari ko'rib chiqildi. Shuningdek, Yaponiya, Janubiy Koreya, Kanada, Avstraliya va boshqa rivojlangan davlatlarning tajribasi ham o'rganildi va ularning umumiy jihatlarini hamda farqlari taqqoslandi.

To'rtinchi yo'nalishda konkret holat o'rganishlari (*case study*) orqali nazariy xulosalar amaliy jihatdan tekshirildi. "*Diamond v. Chakrabarty*" (1980), "*Association for Molecular Pathology v. Myriad Genetics*" (2013), "*Moore v. Regents of the University of California*" (1990) kabi muhim sud qarorlari batafsil tahlil qilindi va ularning huquqiy ahamiyati baholandi. Har bir ish bo'yicha sud qarori matni, sudyalarning alohida fikrlari va keyingi huquqiy amaliyotga ta'siri o'rganildi.

Tadqiqot davomida ilmiy metodologiya talablariga javob beradigan bir qator metodlar qo'llandi. Har bir metod o'ziga xos vazifalarni bajarish uchun tanlangan va ular birgalikda tadqiqotning ishonchligini ta'minladi.

Qiyosiy-huquqiy metod turli davlatlar qonunchiligidagi biotexnologiya obyektlariga nisbatan yondashuvlarni solishtirish uchun keng ishlatildi. Bu metod yordamida har bir yurisdiksiyaning o'ziga xos xususiyatlari, kuchli va zaif tomonlari aniqlandi hamda eng samarali huquqiy mexanizmlar belgilandi.

Tarixiy-huquqiy metod yordamida biotexnologiya obyektlariga nisbatan huquqiy yondashuvlarning vaqt o'tishi bilan qanday o'zgarganini kuzatish va tahlil qilish mumkin bo'ldi.

Strukturaviy-funksional tahlil biotexnologiya obyektlarining tuzilishi va funksional xususiyatlarini batafsil o'rganish uchun ishlatildi. Bu metod obyektlarning huquqiy maqomini aniqlashda muhim ahamiyatga ega bo'lib, ularning ichki tuzilishi va tashqi funksiyalari o'rtasidagi bog'lanishni ochib berdi. Shuningdek, bu metod orqali biotexnologiya obyektlarining turli toifalari o'rtasidagi farqlar va ularni huquqiy tartibga solish xususiyatlari aniqlandi.

Empirik tahlil konkret sud qarorlari va huquqiy amaliyotni o'rganish uchun qo'llandi. Bu metod nazariy xulosalarni amaliy ma'lumotlar bilan tasdiqlash imkonini berdi va tadqiqotning amaliy qiymatini oshirdi.

Tizimli tahlil biotexnologiya obyektlarini yagona tizim sifatida ko'rib chiqish uchun ishlatildi. Tizimli yondashuv biotexnologiya obyektlarining kompleks tabiatini tushunish va ularni yaxlit tizim sifatida tartibga solish choralari ishlab chiqishda zarur hisoblanadi.

Tadqiqot objekti sifatida biotexnologiya obyektlarining fuqarolik-huquqiy munosabatlardagi o'rni va ularning huquqiy tabiatini belgilovchi xususiyatlar tanlandi. Bu obyektlar zamonaviy huquqshunoslikda yangi kategoriya bo'lib, ularning o'rganilishi maxsus yondashuvni talab qiladi.

Tadqiqot predmeti biotexnologiya obyektlarining o'ziga xos huquqiy xususiyatlari va ularning fuqarolik huquqidagi maqomini aniqlash masalalaridan iborat. Bu predmet nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham katta ahamiyatga ega.

Asosiy qism

Biotexnologiya obyektlarining nazariy asoslari

Biotexnologiya obyektlarining nazariy asoslarini o'rganish jarayonida ularning eng

muhim xususiyati – ikki tomonlama tabiatiga alohida e'tibor berish zarur ekanligi aniqlandi. Bu obyektlar bir tomondan, tabiiy materiallar asosida yaratilsa-da, boshqa tomondan, ilmiy tadqiqot va texnologik jarayonlar natijasida sun'iy ravishda o'zgartiriladi yoki sintez qilinadi (de Lisa, 2020). Aynan bu ikkilamchi tabiat huquqshunoslikda yangi yondashuvlar yaratishga olib kelmoqda va an'anaviy yondashuvlarni qayta ko'rib chiqishni talab qilmoqda.

Zamonaviy biotexnologiyalarning rivojlanish sur'atlari shuni ko'rsatmoqdaki, an'anaviy huquqiy tushunchalar biotexnologiya obyektlarining dinamik xususiyatlarini to'liq qamrab ololmayapti. 2023-yil ma'lumotlariga ko'ra, jahon miqyosida 15 000 dan ortiq biotexnologiya kompaniyasi faoliyat yuritmoqda (2023). Bu raqam nafaqat soha hajmini, balki uning huquqiy tartibga solish ehtiyojining yuqoriligini ham yaqqol ko'rsatadi.

Biotexnologiya obyektlarining nazariy asoslarini tushunishda quyidagi yondashuvlar shakllanganini ta'kidlash lozim. *Reduktivist yondashuv* biotexnologiya obyektlarini oddiy kimyoviy birikmalar yig'indisi sifatida ko'radi, ammo bu yondashuv murakkab biologik tizimlarning yangi paydo bo'ladigan xususiyatlarini hisobga olmaydi. Bu yondashuv biotexnologiya obyektlarini an'anaviy moddiy mulk kategoriyasiga kiritishga urinadi, lekin bunday tasnif ularning biologik xususiyatlarini e'tibordan chetda qoldiradi.

Holistik yondashuv esa obyektlarni yaxlit tizim sifatida ko'rib chiqadi va ularning funksional xususiyatlari hamda atrof-muhit bilan o'zaro ta'sirini hisobga oladi. Bu yondashuv biotexnologiya obyektlarining murakkabligini to'liqroq aks ettiradi va ularning biologik, kimyoviy va fizikaviy xususiyatlarini bir vaqtning o'zida hisobga olish imkonini beradi.

Integratik yondashuv yuqoridagi ikki yondashuvning sintezi bo'lib, biotexnologiya obyektlarining ham moddiy, ham ma'naviy jihatlarini bir vaqtda hisobga oladi. Bu yondashuv eng maqbul hisoblanadi, chunki u

biotexnologiya obyektlarining ko'p qirrali tabiatini to'liq qamrab oladi va ularni huquqiy tartibga solish uchun eng optimal mexanizmlarni yaratishga imkon beradi.

Biotexnologiya obyektlarining asosiy xususiyatlari

Tadqiqotimiz davomida biotexnologiya obyektlarining to'rt asosiy xususiyati aniqlandi. Bu xususiyatlar o'zaro uzviy bog'langan bo'lib, birgalikda mazkur obyektlarning o'ziga xos tabiatini shakllantiradi.

1. *Tabiiyligi va sun'iylik dialektikasi.* Bu xususiyat biotexnologiya obyektlarining eng muakkab va muhim jihatlaridan biri hisoblanadi. Nemis Patent va savdo belgilari idorasi (DPMA) ning tushuntirishicha, biologik materialga oid ixtirolar, qoida tariqasida, patent himoyasiga loyiq hisoblanadi. Biroq bu yerda muhim shart mavjud: biotexnologiya obyektlari tabiiy materiallar asosida va albatta, texnologik aralashuv natijasida yaratilgan bo'lishi kerak.

Bu dialektikaning huquqiy ahamiyati shundaki, u patentlilik mezonlarini qo'llashda asosiy rol o'ynaydi. Tabiiy holatda mavjud bo'lgan materiallar odatda patentlanmasligi mumkin, ammo ular sun'iy yo'l bilan o'zgartirilgan yoki izolyatsiya qilingan bo'lsa, patent himoyasini olish huquqiga ega bo'ladi. Bu tamoyil biotexnologiya patentlash amaliyotida asosiy mezon bo'lib xizmat qiladi.

Misol tariqasida, rekombinant DNK texnologiyasi orqali yaratilgan insulin geni tabiiy insulin genidan farqli ravishda patent himoyasini olishi mumkin, chunki uning hosil qilinish jarayonida inson aralashuvi mavjud. Shu bilan birga, tabiiy holatda mavjud bo'lgan gen ketma-ketligi, hatto u juda qimmat va murakkab tadqiqot orqali kashf etilgan bo'lsa ham, patentlanishi mumkin emas. Bu prinsip 2013-yildagi *"Myriad Genetics"* ishida AQSh Oliy sudi tomonidan tasdiqlandi.

2. *Takrorlanish qobiliyati.* Biologik materiallarning o'z-o'zini takrorlash yoki biologik tizimda takrorlanish qobiliyati patent tizimida noyob muammolarni keltirib chiqaradi. Bu xususiyat an'anaviy patent doktrinalaridan

tubdan farq qiladi, chunki tirik organizmlar patentlangan bo'lsa ham, o'zlarini takrorlash (ko'payish) qobiliyatini saqlab qoladi.

Patent huquqida an'anaviy to'liq foydalanish doktrinasini (*"exhaustion doctrine"*) biotexnologiya obyektlari uchun to'liq qo'llanmaydi. Misol uchun, patentlangan urug' sotilgandan keyin ham, undan yetishtirilgan o'simlik va uning keyingi avlod urug'lari patent egasining huquqlarini buzishi mumkin. Bu holat patent himoyasining davomiyligini ta'minlashda yangi yondashuvlarni talab qiladi.

Bu muammoga misollar juda ko'p. Masalan, Monsanto kompaniyasi tomonidan yaratilgan genetik modifikatsiyalangan soya urug'lari haqidagi (Bowman v. Monsanto Co., 2013) sud ishlarida aniqlandiki, fermerlar birinchi avlod urug'ini sotib olganidan keyin ikkinchi avlod urug'larini ekish uchun patent egasidan alohida ruxsat olishi kerak. Bu holat an'anaviy moddiy mulk huquqidan tubdan farq qiladi, chunki oddiy tovarlarda sotish bilan huquqlar to'liq o'tadi.

3. *Yuqori xavf va noaniqlik darajasi.* Biotexnologiya obyektlari ko'pincha yuqori xavf darajasiga ega bo'lib, ularning ta'siri oldindan to'liq bashorat qilinmasligi mumkin. Shuni inobatga olgan holda, Germaniya Patent qonuni (Patentgesetz, PatG), §1a-moddasining (1)-qismiga ko'ra, inson tanasi uning shakllanishi va rivojlanishining turli bosqichlarida, shu jumladan, jinsiy hujayralar patentlanishi mumkin emas. Bu cheklov xavfsizlik va etik masalalarni hisobga olgan holda belgilangan.

2023-yilda o'tkazilgan xalqaro so'rovga ko'ra, biotexnologiya mahsulotlaridan foydalanishda 73 foiz respondent xavfsizlik masalalaridan xavotirlarini bildirgan (Biotechnology Public Perception Survey, 2023). Bu yuqori ko'rsatkich biotexnologiya obyektlarining xavf darajasini baholash va boshqarish masalasining dolzarbligini yaqqol aks ettiradi.

Biotexnologiya obyektlarining xavfsizligi masalasi nafaqat patent huquqi, balki mahsulotlarning bozorga chiqarilishi, sertifikatlash va nazorat qilish tizimlarida ham muhim

ahamiyatga ega. Genetik modifikatsiyalangan organizmlar (GMO), gen muharrirlik texnologiyalari va sintetik biologiya mahsulotlari atrof-muhit va inson salomatligiga kutilmagan ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli ko'pgina davlatlar maxsus biologik xavfsizlik qonunchiligini qabul qilgan.

Misol uchun, *Cartagena Protocol on Biosafety* (Secretariat of the Convention on Biological Diversity, 2000) genetik modifikatsiyalangan organizmlarning xavfsiz ko'chirilishi, ishlatilishi va boshqarilishi bo'yicha xalqaro standartlarni belgilaydi. Shuningdek, AQShda FDA (*Food and Drug Administration*) biotexnologiya mahsulotlarini qat'iy nazorat qiladi va bozorga chiqarishdan oldin xavfsizligini baholashdan o'tkazadi.

4. *Etik va ijtimoiy ahamiyatning yuqoriligi.* Yevropa Patent idorasi (EPO)ning 2025-yilgi hujjati – “*Guidelines for Examination*”da EPC (*European Patent Convention*) ostida, G-II bo'limi, 4.1-qismida (*Matter contrary to “ordre public” or morality*) ko'rsatilishicha, har qanday ixtiro, uning tijorat maqsadida foydalanilishi “*ordre public*” (ommaviy tartib) yoki axloqqa zid bo'lsa, patentlanmaydi. Masalan, genetik muhandislik, genetik testlash va inson ustida tadqiqotlar kabi yo'nalishlar jamiyatda muammolar keltirishi va keng etik munozaralarni uyg'otishi sababli agar ixtiro ekspluatatsiyasi ommaviy tartib yoki axloq me'yorlariga qarshi bo'lsa, u holda EPCning Art. 53(a) bandi doirasida qat'iy taqiqlanishi mumkin.

Bu etik cheklovlar nafaqat huquqiy, balki ijtimoiy jihatdan ham zarur bo'lib, biotexnologiya rivojlanishining maqbul yo'nalishlarini belgilashga yordam beradi. Masalan, inson embrioni ustida genetik muhandislik, insonni klonlash va *chimera* (ikkita organizm qismlardan tashkil topgan) organizmlar yaratish ko'plab mamlakatlarda qat'iy taqiqlangan yoki cheklangan.

2018-yilda xitoylik olim *He Jiankui* genetik tahrirlangan egizak chaqaloqlar tug'ilganini e'lon qilganida bu voqea butun dunyo

ilmiy hamjamiyatida va jamoatchilik orasida katta janjalni keltirib chiqardi (Cyranoski & Ledford, 2018). Ushbu hodisa biotexnologiya sohasida, ayniqsa, inson genomi ustida tajribalar olib borishda, qat'iy etik nazoratning zarurligini yaqqol ko'rsatdi. Natijada bir qator davlatlar va xalqaro tashkilotlar genetik tahrir qilishga oid tartiblarni qayta ko'rib chiqib, yanada qat'iy qonunchilik va normativ hujjatlarni qabul qila boshladilar.

Xalqaro huquqiy amaliyot tahlili

AQSh amaliyoti. Amerika Qo'shma Shtatlari biotexnologiya huquqida dunyodagi eng liberal yondashuvni qo'llaydi. 1980-yilda AQSh Oliy sudi tomonidan ko'rib chiqilgan *Diamond v. Chakrabarty* (1980) ishidagi tarixiy pretsedent “quyosh ostida inson tomonidan yaratilgan har qanday narsa” tamoyilini belgiladi. Bu qaror biotexnologiyani patentlash sohasida haqiqiy inqilobiy o'zgarishga sabab va keyingi barcha qarorlar uchun asos bo'ldi.

Ushbu ishda Ananda Chakrabarti genetik muhandislik yordamida yaratilgan, neftni parchalay oladigan (xususan, dengizga oqizilgan neftlarni yeydigan) bakteriyani patentlashga muvaffaq bo'ldi. AQSh Oliy sudi 5-4 ovoz ko'pchilik bilan qaror qabul qilib, mikroorganizmlar patentlanishi mumkinligini rasmiy ravishda tasdiqladi. Bu qaror biotexnologiya sohasida yangi davrni boshlab berdi.

Qaror qabul qilishda Oliy sud qonun chiqaruvchi organ tomonidan qo'yilgan cheklovlarining keng talqinini qo'llab-quvvatladi. Sud ta'kidladiki, Kongress qonunga “har qanday” so'zini kiritish orqali patentlilik sohasini keng qamrovli darajaga yetkazishni maqsad qilgan. Biroq sud uchta asosiy istisnoni belgiladi: tabiiy hodisalar, abstrakt g'oyalar va tabiiy qonunlar patentlanishi mumkin emas.

Biroq keyinchalik 2013-yilda AQSh Oliy sudi tomonidan ko'rib chiqilgan *Association for Molecular Pathology v. Myriad Genetics, Inc.* (2013) ishida tabiiy holda yuzaga keluvchi DNK ketma-ketliklari patentlanish uchun mos emasligi qaroriga kelindi. Bu qaror bio-

texnologiyani patentlash sohasida muhim chegarani belgilab, tabiiy va sun'iy elementlar o'rtasidagi farqni aniqlashtirdi.

“Myriad Genetics” kompaniyasi BRCA1 va BRCA2 genlarini izolyatsiya qilgan va ularning mutatsiyalari ko'krak va tuxumdon saratonini xavfini oshirishini aniqlagan edi. Kompaniya bu genlar va ularning diagnostik qo'llanishiga patentlar olgandi. Biroq Oliy sud qarorida tabiiy DNK ketma-ketliklari, hatto ular juda qimmat tadqiqot orqali izolyatsiya qilingan bo'lsa ham, “tabiiy mahsulot” hisoblanadi va patentlanishi mumkin emas, deb ta'kidladi. Biroq cDNK (komplementar DNK) – ya'ni sun'iy sintez qilingan DNK patentlanishi mumkin, chunki u tabiatda mavjud emas.

Yevropa Ittifoqi amaliyoti. Yevropa Ittifoqida biotexnologiya obyektlariga nisbatan ancha ehtiyotkor va tanqidiy yondashuv qo'llanadi. 1998-yil 6-iyulda Yevropa Parlamenti va Kengashi tomonidan qabul qilingan Biotexnologik ixtirolarni huquqiy himoya qilish to'g'risidagi 98/44/EC raqamli Direktiva (1998-yil 30-iyul, L 213 YI Rasmiy jurnali, 13–21-b.) genetik materiallarning ma'lum va aniq shartlar ostida patentlanishi mumkinligini belgilaydi. Bu direktiva etik va xavfsizlik masalalariga alohida e'tibor beradi.

Yevropa Patent idorasi yo'riqnomasiga ko'ra, tabiatda kashf etilgan gen, agar u aniq texnik ta'sir etilgan bo'lsa va tabiiy holatidan farqli tarzda qo'llansa, patentlanishi mumkin. Biroq etik cheklovlar qo'yiladi va ommaviy tartibga zid ixtirolar qat'iy patentlanmaydi. Bu yondashuv innovatsiya va etik normalar o'rtasidagi muvozanatni saqlashga qaratilgan.

98/44/EC Direktivaning 6-moddasiga ko'ra, quyidagi ixtirolar patentlanishi mumkin emas:

- insonni klonlash jarayonlari;
- inson germinal liniyasining genetik identifikatsiyasini o'zgartirish jarayonlari;
- tibbiy yoki veterinar maqsadlarsiz hayvonlarga azob berish jarayonlari;
- inson embrionlarini sanoat yoki tijorat maqsadlarida ishlatish.

Yevropa amaliyotida etik ekspertizaga alohida e'tibor beriladi. Har bir biotexnologik patent arizasi nafaqat texnik, balki etik jihatdan ham baholanadi. Bu jarayon patentning jamiyat manfaatlariga mos kelishini ta'minlaydi.

Xitoy amaliyoti. Xitoyda 2020-yil 28-mayda qabul qilingan va 2021-yil 1-yanvardan kuchga kirgan Xitoy Xalq Respublikasi Fuqarolik kodeksining 1009-moddasi inson DNKsi bilan bog'liq tadqiqotlarni qat'iy tartibga soladi. Bu qonun biotexnologiya sohasida etik cheklovlarni belgilash va inson huquqlarini himoya qilishga qaratilgan bo'lib, davlat nazoratini kuchaytiradi.

Fuqarolik kodeksining 1009-moddasi quyidagilarni belgilaydi:

- biotibbiyot tadqiqotlari qonun va me'yoriy hujjatlarni hurmat qilishi, etik me'yorlarga rioya qilishi kerak;
- inson genomi, embrioni ustida tadqiqotlar qat'iy tartibga solinadi;
- inson hayoti, salomatligi va qadr-qimmatini himoya qilish ustuvor hisoblanadi.

Xitoy hukumati biotexnologiya rivojlanishini rag'batlantirish bilan bir vaqtda, xavfsizlik va etik masalalarni nazorat qilish o'rtasida muvozanatni saqlashga harakat qilmoqda. Bu ikki tomonlama yondashuv mamlakatning uzoq muddatli rivojlanish strategiyasiga mos keladi.

He Jiankui voqeasidan keyin Xitoy hukumati yanada qat'iy nazorat choralari joriy qildi. 2019-yilda maxsus qonun qabul qilindi, unda inson embrioni ustida genetik tahrirlash qat'iy taqiqlandi. Shuningdek, biotexnologiya tadqiqotlarini amalga oshirayotgan barcha muassasalar maxsus litsenziya olishlari va etik komissiyalar nazoratida ishlashlari shart qilindi.

Boshqa yurisdiksiyalar. Yaponiya, Kanada, Avstraliya va Janubiy Koreya kabi davlatlar ham biotexnologiya obyektlariga nisbatan o'ziga xos yondashuvlarni ishlab chiqqan. Yaponiya AQSh va Yevropa o'rtasidagi o'rta pozitsiyani egallaydi, biotexnologiya inno-

vatsiyalarini qo'llab-quvvatlagan holda ayni vaqtda etik cheklovlarni ham hisobga oladi.

Kanada biotexnologiya patentlashda nisbatan liberal yondashuvni qo'llaydi, lekin yuqori (murakkab) tuzilishli organizmlar (*higher life forms*) patentlanishiga cheklov qo'yadi. Avstraliya esa Yevropa yondashuviga yaqin bo'lib, etik masalalarga katta e'tibor beradi.

Olib borilgan keng qamrovli tadqiqot natijalari shuni yaqqol ko'rsatdiki, biotexnologiya obyektlari an'anaviy fuqarolik-huquqiy kategoriyalardan sezilarli darajada farq qiladi. Ularning o'ziga xos xususiyatlari nafaqat maxsus huquqiy yondashuvni talab qiladi, balki butunlay yangi huquqiy kategoriyalar yaratishni ham zaruriyatga aylantiradi.

Tabiiyligi va sun'iylik dialektikasi masalasida turli yurisdiksiyalar tubdan har xil yechimlarni qo'llayotgani aniqlandi. AQSh ko'proq sun'iy elementga e'tibor bersa, Yevropa texnik ta'sirga ega bo'lishni nazarda tutgan holda tabiiy materiallarning himoyasida ancha ehtiyotkor pozitsiyani egallaydi. Bu farq global biotexnologiya bozorida muvofiq-lashtirish muammolarini keltirib chiqarmoqda va xalqaro hamkorlikni murakkablashtir-moqda.

Misol uchun, bir xil biotexnologiya obyekt-i AQShda patentlanishi, ammo Yevropada rad etilishi mumkin. Bu holat kompaniyalar uchun strategik muammolar tug'diradi va global investitsiyalarni rejalashtirishni qiyin-lashtiradi. Shuningdek, bu farq ilmiy hamkor-likka ham salbiy ta'sir ko'rsatadi, chunki tad-qiqotchilar har bir yurisdiksiyada turli huqu-qiy rejimlar bilan shug'ullanishlari kerak.

Takrorlanish qobiliyati masalasi patent huquqida butunlay yangi yondashuvlarni ta-lab qilishi aniqlandi. An'anaviy patent doktri-nalari biotexnologiya obyektlarining o'z-o'zi-ni takrorlash xususiyatini hisobga olmagan holda ishlab chiqilgani sababli hozirgi sharo-itlarda to'liq maqbul emas.

Tadqiqot davomida bir qator jiddiy mu-ammolar aniqlandi. Biotexnologiya obyekt-lari bir vaqtda bir nechta huquqiy sohalarga

(patent huquqi, fuqarolik huquqi, tibbiyot huquqi, ekologiya huquqi) tegishli bo'lib, ularning huquqiy rejimi aniq belgilanmagani katta muammo hisoblanadi. Bu holat huqu-qiy noaniqlik yaratadi va investitsiyalarni ka-maytiradi.

Shuningdek, turli davlatlar biotexnologiya obyektlariga nisbatan har xil yondashuvlarni qo'llaydi, bu esa biotexnologiya sohasida xal-qaro munosabatlar va tovarlar muomalasida qiyinchiliklar va investorlar uchun noaniq muhit yaratadi. Bu holat innovatsiya rivojla-nishini sekinlashtirishi mumkin.

1992-yil 5-iyunda Rio-de-Janeyro shah-rida imzolangan Biologik xilma-xillik to'g'ri-sidagi konvensiya biotexnologiya obyektlari bilan ishlashda atrof-muhit va biologik xavf-sizlik masalalariga alohida e'tibor berishni ta'kidlaydi (2023). Bu xalqaro hujjat biotex-nologiya sohasida global standartlarni shakl-lantirish yo'lida muhim qadam hisoblanadi.

Tadqiqot davomida yana bir muhim mu-ammo aniqlandi: biotexnologiya obyektlari-ga egalik va foydalanish huquqlari masalasi. 1990-yildagi *Moore v. Regents of the Univer-sity of California* (1990) ishida Kaliforniya shtati Oliy sudi bemor hujayralari ustida ega-lik huquqiga ega emasligi haqida qaror qabul qildi. Ushbu ishda *John Moore* ismli bemor o'zining talog'i hujayralaridan olingan va tijo-rat maqsadlarida ishlatilgan hujayra liniyasi-ga nisbatan da'vo qilgan edi.

Sud qaroriga ko'ra, bemor o'z tanasidan olingan biologik materiallar ustida egalik hu-quqiga ega emas, shuning uchun ularning ti-jorat maqsadlarida ishlatilishidan foyda olish huquqi ham yo'q. Bu qaror katta munozara-lar tug'dirdi va biotexnologiya etika sohasida inson biologik materiallarining tijoratlashi-rishi etikasi, ruxsat olish zaruriyati va man-faatlarni taqsimlash kabi muhim masalalarni ko'tardi.

Xulosa

Amalga oshirilgan kompleks tadqiqot asosida quyidagi muhim xulosalarga kelish mumkin:

Birinchidan, biotexnologiya obyektlari o'zlarining tabiiyligi va sun'iylik dialektikasi, takrorlanish qobiliyati, yuqori xavf darajasi va etik ahamiyati tufayli an'anaviy fuqarolik-huquqiy kategoriyalardan sezilarli darajada farq qiladi va alohida huquqiy maqomni talab qiladi. Ular nafaqat moddiy mulk, balki intellektual mulk kategoriyalariga ham to'liq mos kelmaydi, chunki ularning xususiyatlari ikkala kategoriyadan ham elementlarni o'z ichiga oladi.

Ikkinchidan, hozirgi vaqtda biotexnologiya obyektlarining huquqiy maqomini to'liq qamrab oladigan yagona xalqaro standart mavjud emas. Turli davlatlar har xil yondashuvlarni qo'llaydi, bu esa global miqyosda muvofiq-lashtirish muammolarini keltirib chiqaradi. AQSh liberal yondashuvni qo'llayotgan bo'lsa, Yevropa ehtiyotkor pozitsiyani egallaydi, Xi-toy esa qat'iy davlat nazoratini amalga oshir-moqda.

Uchinchidan, biotexnologiya obyektlari-ning huquqiy tartibga solishi etik normalar, xavfsizlik talablari va innovatsion rivojlanish o'rtasidagi nozik muvozanatni talab qiladi va bu muvozanatni saqlash zamonaviy huquq-shunoslikning asosiy vazifalaridan biri hisob-lanadi. Haddan tashqari liberal yondashuv etik muammolarga olib kelishi mumkin, had-dan tashqari qattiq nazorat esa innovatsiyani sekinlashtiradi.

To'rtinchidan, 1980-yildagi *Diamond v. Chakrabarty* va 2013-yildagi *Myriad Genetics* ishlaridagi sud amaliyoti tahlili shuni ko'r-satdiki, biotexnologiyani patentlash sohasida tabiiy va sun'iy elementlar o'rtasidagi huqu-qiy chegaralarni aniqlash jarayoni davom etmoqda va bu jarayon doimiy qayta ko'rib chiqishni talab qiladi. Texnologiya rivojlani-shi bilan yangi muammolar paydo bo'lmoqda va sud amaliyoti ularga moslashib borishi za-rur.

Beshinchidan, inson biologik materialla-rining tijoratlashtirish masalasi jiddiy etik va huquqiy muammolarni tug'diradi. *Moore v. Regents* ishi ushbu masalada aniq va ado-

latli yechimlar topilmaganini ko'rsatdi. Be-morlar o'z biologik materiallaridan olingan tijorat mahsulotlaridan foyda olish huquqiga ega bo'lishlari kerakmi yoki yo'qmi – bu savol hali ham ochiq qolmoqda.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi ama-liy takliflarni berish mumkin:

Birinchidan, biotexnologiya obyektlari uchun maxsus fuqarolik-huquqiy kategoriya yaratish zarur. Bu kategoriya ularning o'zi-ga xos xususiyatlarini to'liq hisobga olishi va huquqiy aniqlikni ta'minlashi kerak. Bun-day kategoriya an'anaviy moddiy mulk va intellektual mulk tushunchalarining sintezi asosida shakllantirilishi lozim. "Bio-mulk" (*bio-property*) yoki "biologik obyektlar" kabi maxsus kategoriya kiritish maqsadga muvo-fiqdir.

Ikkinchidan, xalqaro miqyosda biotexno-logiya huquqi bo'yicha yagona standartlarni ishlab chiqish va qabul qilish lozim. Bu stan-dartlar turli davlatlar o'rtasidagi farqlarni kamaytirib, global hamkorlikni osonlashti-radi. 1992-yilda qabul qilingan Biologik xil-ma-xillik to'g'risidagi konvensiya tajribasiga asoslanib, yangi xalqaro shartnomalar ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir. Xususan, bio-texnologiya patentlash, biologik xavfsizlik va etik standartlar bo'yicha universal qoidalar yaratish zarur.

Uchinchidan, etik ekspertiza mexanizm-larini huquqiy tartibga solish tizimiga to'liq integratsiya qilish zarur. Bu mexanizmlar biotexnologiya rivojlanishining maqbul yo'-nalishlarini ta'minlashga yordam beradi. Yevropa Ittifoqi tajribasidan kelib chiqib, maxsus bioetika komissiyalarini tashkil etish va ularning qarorlariga huquqiy kuch berish tavsiya etiladi. Bunday komissiyalar tarkibi-ga huquqshunoslar, biotexnologlar, etiklar, diniy arboblardan va jamiyat vakillari kiritilishi lozim.

To'rtinchidan, biotexnologiya obyektlari-ni xavfsizlik bo'yicha baholash uchun maxsus va aniq protseduralar ishlab chiqish lozim. Bu protseduralar xavflarni oldindan aniqlash

va ularni minimallashtirishga imkon beradi. Germaniya Patent qonuni tajribasidan foydalanib, inson salomatligi va atrof-muhitga potentsial zarar yetkazishi mumkin bo'lgan obyektlar uchun qat'iy monitoring tizimini joriy etish zarur. Shuningdek, biotexnologiya obyektlarini bozorga chiqarishdan oldin majburiy xavfsizlik bahosi o'tkazish tizimini yaratish kerak.

Beshinchidan, biotexnologiya obyektlarining takrorlanish qobiliyatini hisobga olgan holda patent huquqida "to'liq foydalanish dokrinasi"ni qayta ko'rib chiqish va biotexnologiya sohasiga maxsus mexanizmlar yaratish talab etiladi. Bu patent egalarining huquqlari va jamiyat manfaatlari o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashga yordam beradi. "Genetik litsenziyalash" kabi yangi huquqiy institutlarni joriy etish mumkin.

Oltinchidan, inson biologik materiallari bilan ishlashda aniq huquqiy rejimni belgilash zarur. Bemorlarning o'z biologik materiallaridan tijorat maqsadlarida foydalanishga ruxsat berish yoki rad etish huquqini ta'minlash, shuningdek, agar bunday materiallardan tijorat mahsulotlari yaratilgan bo'lsa, adolatli kompensatsiya mexanizmlarini ishlab chiqish kerak. "Biologik manfaatlarni ulashish" (*benefit-sharing*) tizimini joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Yettinchidan, O'zbekiston qonunchiligini takomillashtirish uchun maxsus tavsiyalar:

- O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga biotexnologiya obyektlariga oid maxsus bob kiritish;
- biotexnologiya obyektlarini patentlash va litsenziyalash bo'yicha maxsus qonun qabul qilish;
- Milliy bioetika komissiyasini tashkil etish va uning faoliyatini tartibga solish;
- biologik xavfsizlik milliy tizimini yaratish va uni xalqaro standartlarga moslashtirishni ta'minlash;

– biotexnologiya sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish va xalqaro shartnomalarni imzolash zarur.

Kelajakda biotexnologiya huquqining muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun tarmoqlararo yondashuvga ehtiyoj bor. Huquqshunolar, biotexnologlar, etiklar va iqtisodchilarning samarali hamkorligi orqali muvozanatli va innovatsion huquqiy tizimni yaratish mumkin bo'ladi. Bu yondashuv nafaqat ilmiy taraqqiyotni rag'batlantiradi, balki jamiyat xavfsizligi va etik standartlarni ham ta'minlaydi.

Biotexnologiya obyektlarining fuqarolik-huquqiy tabiati masalasi davom etayotgan tadqiqotlar predmeti bo'lib qoladi. Texnologiyaning tez rivojlanishi doimo yangi huquqiy muammolarni keltirib chiqaradi va ularning yechimi yangi, kreativ yondashuvlarni talab qiladi. CRISPR-Cas9 texnologiyasi, sun'iy biologik tizimlar va sintetik biologiya sohasidagi so'nggi yutuqlar huquqshunoslikda yangi muammolarni yuzaga keltirmoqda va bu muammolar tez orada mustaqil tadqiqot obyektiga aylanishi kutilmoqda.

Sun'iy intellekt bilan birlashtirilgan biotexnologiya obyektlari, nanobiotexnologiya va bioprinting kabi yangi yo'nalishlar ham alohida huquqiy tartibga solishni talab qiladi. Masalan, sun'iy organlar yaratish va transplantsiya qilish masalalari nafaqat tibbiy, balki bunday organlar kimga tegishli, ularni sotish mumkinmi, donor va qabul qiluvchilarning huquqlari qanday tartibga solinadi degan savollarni paydo qiluvchi huquqiy jihatdan ham murakkab muammolarni tug'diradi.

Shuning uchun bu sohada doimiy tadqiqot va tahlillarga ehtiyoj katta. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida ham biotexnologiya obyektlariga nisbatan maxsus huquqiy tartibga solish mexanizmlarini joriy etish, xalqaro tajribani o'rganish va milliy sharoitlarga moslashtirilgan huquqiy bazani yaratish dolzarb vazifa hisoblanadi.

REFERENCES

1. Association on for Molecular Pathology v. Myriad Genetics, Inc., 569. US. 576. (2013). Certiorary to the US Court of appeals for the Federal Circuit.
2. American Chemical Society. (2023). *Biotechnology: Science for the New Millennium* (p. 156). Washington, DC, ACS Publ.
3. Biotechnology Public Perception Survey (2023). European Commission Joint Research Centre. <https://joint-research-centre.ec.europa.eu>
4. Bowman v. Monsanto Co., 569 US. 278. (2013). Supreme Court of the US.
5. Centers for Disease Control and Prevention (CDC). Biological Risk Management. Division of Laboratory Systems. <https://www.cdc.gov/laboratory-systems/php/biological-risk-management/index.html>
6. Cyranoski, D. & Ledford, H. (2018). Genome-edited baby claim provokes international outcry. *Nature*, 563(7733), 607–608. <https://doi.org/10.1038/d41586-018-07545-0>
7. De Lisa, I. (2020). *The Patentability of Synthetic Biology Inventions: New Technology, Same Patentability Issues?* (p. 318). Cham: Springer Nature.
8. Diamond v. Chakrabaty, 447 U.S. 303. (1980). Certiorary to the US Court of Customs.
9. Federal appeals court sends CRISPR-Cas9 patent case back to patent office for reconsideration. (2025, May). UC Berkeley News. <https://news.berkeley.edu/2025/05/12/federal-appeals-court-sends-crispr-cas9-patent-case-back-to-patent-office-for-reconsideration>
10. FDA. (n.d). What is a biosimilar product? <https://www.fda.gov/drugs/biosimilars/overview-health-care-professionals>
11. Global Biotechnology Market Report 2023. (2023). Research and Markets. <https://www.researchandmarkets.com/reports/biotechnology>
12. Global Biotechnology Industry Statistics. (2023). Biotechnology Innovation Organization (BIO). <https://www.bio.org/policy/human-health/vaccines-biodefense/biotechnology-industry-facts>
13. Mokhov, A., Yavorsky, A., Grivachevskiy, A., & Khoroshilova, E. (2021). *Biopolitics, biotechnologies, biomedicine, and biolaw as forms of bioregulation*. SHS Web of Conferences, 108, 01009. https://www.shs-conferences.org/articles/shsconf/abs/2021/19/shsconf_blf2021_01009/shsconf_blf2021_01009.html
14. Moore v. Regents of the University of California, no. S006987. (1990). Superior Court of Los Angeles County.
15. NCERT. (2025). Biology: Chapter - Biotechnology: Principles and Processes. (Chapter 11). National Council of Educational Research and Training. <https://ncert.nic.in/textbook/pdf/lebo109.pdf>
16. Ogbogu, U. (2017, November). *What Is a New Object? Case Studies of Classification Problems and Practices at the Intersection of Law and Biotechnology*. <https://ssrn.com/abstract=3073435>
17. Patenting inventions arising from biological research. (n.d). PMC (PubMed Central). National Center for Biotechnology Information. PMC549056. <https://www.ncbi.nlm.nih.gov/pmc/articles/PMC549056/>
18. Secretariat of the Convention on Biological Diversity. (2000). Cartagena Protocol on Biosafety to the Convention on Biological Diversity: Text and annexs. Montreal.
19. Singh, K. K. (2015). *Biotechnology and Intellectual Property Rights: Legal and Social Implications* (p. 342). New Delhi: Springer India.
20. CRISPR patent wars. (2022). DLA Piper. <https://www.dlapiper.com/en/insights/publications/intellectual-property-news/2022/the-crispr-patent-wars>

YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2025-YIL 5-SON

VOLUME 5 / ISSUE 5 / 2025

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.5.5.